

## “QADRIYAT” MAZMUNIIY MAYDONIGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

**B.P.Zaripov,**

*Navoiy davlat universiteti*

*O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.n.*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “qadriyat” mazmuniiy maydoniga mansub frazeologik birliklarning pragmatik jihatlarini o‘rganiladi. Frazeologizmlarning milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni ifodalashdagi semantik imkoniyatlari, ularning kommunikativ vazifalari va lingvomadaniy xususiyatlari tahlil etiladi. Tadqiqot davomida frazeologik birliklarning xalq tafakkuri, madaniy an’analar va axloqiy qarashlar bilan uzviy bog‘liqligi misollar asosida yoritiladi. Shuningdek, ularning nutq jarayonida ta’sirchanlikni kuchaytirish, ta’lim va tarbiya hamda ijtimoiy muloqotdagi amaliy ahamiyati asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Frazeologik birlik, qadriyat mazmuniiy maydoni, pragmatika, lingvomadaniyat, semantik qatlam, madaniy kod, milliy qadriyat, nutqiy vazifa, baholash, kommunikativ ta’sir.

**Annotation.** This study examines the pragmatic aspects of phraseological units belonging to the semantic field of values. The semantic potential of phraseological units in expressing national and universal values, their communicative functions, and linguocultural characteristics are analyzed. The research highlights, through examples, the close connection of phraseological units with folk worldview, cultural traditions, and moral concepts. In addition, their practical significance in strengthening expressiveness in speech, as well as in education, upbringing, and social communication, is substantiated.

**Keywords:** Phraseological unit, value semantic field, pragmatics, linguoculture, semantic layer, cultural code, national value, speech function, evaluation, communicative effect.

**Аннотация.** В данном исследовании рассматриваются прагматические аспекты фразеологических единиц, относящихся к семантическому полю ценностей. Анализируются семантические возможности фразеологических единиц в выражении национальных и общечеловеческих ценностей, их коммуникативные функции и лингвокультурные особенности. На примерах показана тесная связь фразеологических единиц с народным мировоззрением, культурными традициями и нравственными представлениями. Кроме того, обосновывается их практическая значимость в усилении выразительности речи, а также в образовании, воспитании и социальной коммуникации.

**Ключевые слова:** Фразеологическая единица, семантическое поле ценностей, прагматика, лингвокультура, семантический слой, культурный код, национальная ценность, речевая функция, оценка, коммуникативное воздействие.

**Kirish.** Frazeologik birliklar tilning faqat grammatik va leksik tizimining ajralmas qismi bo‘lib qolmay, balki xalqning ma’naviy dunyosini, uning urf-odatlarini, an’analarini va hayotiy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan murakkab hodisa hisoblanadi.

Frazeologik birliklar V.V. Vinogradov ta’kidlaganidek, “tilning ijtimoiy-tarixiy va madaniy tajribalarini o‘zida saqlovchi ko‘chma ma’noli birliklardir”. Ularning ma’nolari shaxsiy lug‘aviy ma’nolarning yig‘indisi emas, balki yaxlit, o‘ziga xos ma’no qatlamiga egaligi bilan ajralib turadi. O‘zbek tilidagi ko‘plab frazeologik birliklar ajdodlarimizning urf-odatlar va qadriyatlaridan (masalan, “e’tiqod”, “mehmonni ulug‘lash”, “ahillik”, “halollik”, “adolat”, “ishonch”, “farosat”, “saxovat”) kelib chiqqan. Frazeologik birliklar

xalqning hayotiy tajribasini umumlashtirib, qadriyatlarni tizimlashtirib, leksik qatlamiga kirib boraveradi.

“Tilning dunyoni lingvistik tasvirini yaratishdagi o‘rni beqiyosdir. Bu tasvirni to‘laqonli shakllantirishda frazeologik birliklar alohida hamiyat kasb etadi”. Ularning ma‘naviy tabiati faqat lingvistik qonuniyatlar bilan emas, balki til egalarining dunyoqarashi, ularning madaniy, tarixiy an‘analari bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Frazeologik birliklar umumiy ma‘noga ega bo‘lgan tipik vaziyatlarda rasmiylashgan, odamlarning hayotiy tajribasini tilda umumlashtiruvchi, ko‘p hollarda metaforik, qiyosiy yoki metonimik asosga ega bo‘lgan majoziy ifodalardir. Ushbu tadqiqotda ularning lingvistik tasvirini yaratishdagi o‘rni, ularning metaforiklik va madaniy kodlar bilan aloqadorligi hamda nutq jarayonida foydalanuvchi omili orqali namoyon bo‘ladigan pragmatik potentsiali ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Frazeologik birliklar tilning lingvistik tasvirini yaratishda, uni boyitishda va nutqqa hissiy-baholash rang baranglik baxshida etishda muhim rol o‘ynaydi. Frazeologik birliklarning pragmatik potentsiali, ya‘ni nutq jarayonida foydalanuvchining maqsadiga xizmat qilishi, nutqiy strategiyalarning samaradorligini oshirishi ularning kommunikativ ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Frazeologik birliklarni tahlil qilish orqali tilning tizimiy va amaliy, shuningdek, ijtimoiy-madaniy qatlamlarini to‘laqonli o‘rganish mumkin.

Quyida “qadriyat” kategoriyasiga oid frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlari haqida batafsil to‘xtalib o‘tamiz. Pragmatika va qadriyatlar o‘rtasidagi aloqadorlik shundaki, til foydalanuvchisi nutq jarayonida nafaqat ma‘lumot uzatadi, balki o‘zining dunyoqarashini, axloqiy me‘yorlarini va jamiyatda qabul qilingan qadriyatlarni va shu millat bilan bog‘liq nutqiy muloqotlarni ham namoyon etadi. Ular “hamkorlik tamoyili” doirasida ishlayotganda, tinglovchi ham ma‘lum bir qadriyatlarga amal qilishi yoki ularni tushunishi kerak bo‘ladi. Bu shuni anglatadiki, har bir millat a‘zosi yashab turgan muhit asosida fikrlaydi, tushunadi, kinoya qiladi, so‘zlovchi va tinglovchiga “yashirin ma‘lum kod”lar orqali suhbat quradi. Suhbatdoshning maqsadini tushunish darajasi ham qadriyatlar bilan bog‘liq. Agar foydalanuvchi biror ijtimoiy qadriyatni (masalan, sodiqlikni) ifodalashni niyat qilsa, u shunga mos iboralarni tanlaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** Frazeologik birliklar tilning “jonli namunalarini” bo‘lib, ularning o‘zagi ko‘pincha xalqning muayyan qadriyatlari, axloqiy me‘yorlari va dunyoqarashi bilan bog‘liq. Ko‘pgina frazeologik birliklar muayyan madaniy kodlarni o‘zida saqlaydi. Masalan, o‘zbek tilida “e‘tiqod”, “mehmonni ulug‘lash”, “ahillik”, “halollik”, “adolat”, “ishonch”, “farosat”, “saxovat” kabi qadriyatlarni aks ettiruvchi ko‘plab iboralar mavjud. Ularning kontekstdan anglashilgan ma‘nosi nutqiy jarayonlarda va vaziyatlarga xoslanib boraveradi. Albatta, ular xalq qadriyatlariga bevosita taalluqli bo‘lgan mavzular asosida, qolaversa, shaxs ma‘naviyati bilan bog‘liq o‘ringa ham bog‘liq bo‘ladi. Masalan, *ixlos qo‘ymoq* iborasi o‘ziga xos pragmatik ma‘noga ega. “*Ixlos qo‘ymoq*” iborasi o‘zbek tilining boy leksik-semantik tarkibiga mansub bo‘lib, qadim qadriyatlar bilan bog‘liq.

“Ixlos” tushunchasi o‘zbek tilida alohida o‘ringa ega bo‘lib, “**IXLOS** [a. samimiylik, ko‘ngli ochiqlik; berilganlik, muxlislik; e‘tiqod] Chin yurakdan, ishonch bilan berilish; astoydil muhabbat, mehr. *Odamlarniing sizga ixlosi baland. Yosh ishchining qunt va ixlos bilan izlanishi... o‘z samarasini berdi.* “Saodat”. *Qutidorning javobidan samimiyat va ixlos ma‘nolari tomib turar edi.* A.Qodiriy, O‘tkan kunlar”. “Ixlos qo‘ymoq” – bu biror narsaga yoki shaxsga nisbatan sodiqlik va cheksiz ishonchni bildiradi. Bu ibora ko‘pincha murakkab, qiyin vaziyatlarda ham o‘z qarashlaridan, o‘z ishonchlaridan voz kechmaslikni ifodalaydi. Masalan, murabbiyga, o‘qituvchiga, “ixlos qo‘ymoq” – bu unga sodiq qolish, uning yo‘lidan chiqmaslikni anglatadi. Bu qadriyat, ayniqsa, axloqiy-tarbiyaviy jihatdan muhimdir. Ibora, shuningdek, ma‘lum bir maqsadga erishishdagi qat‘iylik va intilishni ham qamrab oladi. Biror narsaga “ixlos qo‘ymoq” – bu unga erishish yo‘lida bor imkoniyatni sarflab, samimiy harakat qilish demakdir. Bu qadriyat insonning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishda muhim omil bo‘lib, uning ijodiy va mehnat faoliyatida namoyon bo‘ladi.

“Ixlos qo‘ymoq” iborasining nutqdagi pragmatik jihatlari uning turli kommunikativ vaziyatlarda qanday qo‘llanilishini va foydalanuvchiga qanday maqsadlarda xizmat qilishini ko‘rsatadi. Ibora, ko‘pincha, biror shaxsning yoki harakatning samimiy, halol va sodiq ekanligini ta’kidlash uchun ishlatiladi. Bu orqali foydalanuvchi o‘zining ijobiy bahosini ifodalaydi. Masalan, “U o‘z ustoziga chin dildan ixlos qo‘ygandi” – bu o‘quvchining ustoziga nisbatan yuksak hurmat va sodiqligini ta’kidlaydi. Bu ibora orqali samimiylik, sodiqlik, poklik kabi qadriyatlarni targ‘ib qilish mumkin. Foydalanuvchi ushbu iborani qo‘llash orqali tinglovchida ham shu qadriyatlarga nisbatan hurmat uyg‘otishga intiladi hamda bu ibora turli jarayon, shaxs va voqelikka ixlos va sadoqatni ifodalaydi. Bu pragmatik ta’sirning bir turi hisoblanadi.

Pragmatik jihatdan esa, u nutqda *baholash, ta’kidlash, qadriyat targ‘iboti va emotsional ifoda* vositasi sifatida keng qo‘llaniladi. Ushbu iboraning chuqur tahlili o‘zbek tilining madaniy-qadriyatlarini yanada teranroq anglashga imkon beradi.

Frazeologik birliklarning pragmatik funksiyalari ularning nutq jarayonida bajaradigan vazifalarini qamrab oladi. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Baholash vazifasi: Frazeologik birliklar o‘zida ijobiy yoki salbiy ma‘noni jamlaydi. “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da salbiy bahoga ega birliklar ko‘p ekanligiga guvoh bo‘ldik. Bu shuni anglatishi mumkinki, ba’zi iboralar vaziyatga qarab ikki xil ma‘noni, ya’ni ijobiy va salbiy bahoni anglatishi mumkin. Masalan, “yuziga qarab gapirmoq” (samimiy bo‘lmoq) ijobiy baholanadi, “tomog‘idan o‘tmaslik” ikki xil ma’noda keladi. Ma’lumki, xalqimizda ota-onalar farzandi va yaqinlariga o‘zlari yaxshi ko‘rgan, tansiq taom bo‘lsa, “tomog‘imdan o‘tmay turibdi”(shevada “qiyildim”, adabiy tilda juda ilindim) iborasi qo‘llanadi. Albatta, bu qadriyatimizga xos bo‘lgan bolaparvar va qarindoshparvarlikning belgilaridan biri.

Yana bir o‘rinda ushbu ibora teskari ma’noda, yani nohaq topilgan mol(xarom yo‘l bilan topilgan mol)ga nisbatan ham salbiy ma’noda ishlatiladi. Foydalanuvchi bu fikr-mulohazalarni ishlatib, voqea yoki shaxslarga o‘z munosabatini bildiradi. Bu harom luqma *tomog‘imdan o‘tmaydi*. (Muallif)

Frazeologik birliklar ko‘pincha fikrni kuchaytirish, fikr-mulohazalarni asoslash yoki o‘z pozitsiyasini mustahkamlash uchun ishlatiladi. Masalan, “Imoni komil” iborasi o‘ziga xos ma’noni ifodalaydi. Bugungi kunda mazkur iborani qo‘llashimiz oddiy holga aylanib qolgan bo‘lishi, yoki ma’lum uslubga xoslanib qo‘llanishi mumkin.

Frazeologik birliklarning ma’nosi o‘z-o‘zidan, tasodifiy tug‘ilmaydi. Ular muayyan ijtimoiy-madaniy sharoit, qadriyatlar tizimi va jamiyat ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. Masalan, xalq iboralari orqali nafaqat axloqiy me’yorlar, balki jamiyatda ustuvor o‘rin tutuvchi qadriyatlar – *mehnatsevarlik, halollik, kattaga hurmat, vatanga sadoqat, mehr-oqibat* kabi tushunchalar mustahkamlanishini aytib o‘tdik. Shu nuqtayi nazardan, frazeologik birliklarni o‘rganishda quyidagi masalalar dolzarb:

1. Qadriyatning aks etishi – frazeologik birliklarning semantik tuzilmasida millatga xos qadriyatlarning qanday ifoda topishi.


2. Ijtimoiy guruhlar nuqtayi nazari – iboralarni kimlar, qaysi qatlamlar va qanday ijtimoiy sharoitda qo‘llashi.

3. Pragmatik maqsad – frazeologizmlarning qaysi nutqiy vaziyatda, qanday ta’sir kuchi bilan ishlatilishi.

4. Madaniy kod – frazeologik birliklar orqali xalq tafakkurida qadriyatlarning barqarorlashuvi va keyingi avlodlarga yetkazilishi.

Xususan, “qadriyat” mazmuniy maydoni frazeologik birliklarda xalqning tarixiy tajribasi va ma’naviy boyligini mujassamlashtiradi. Masalan, “ota-onaga hurmat”, “farzandlarga g‘amxo‘rlik”, “nonning qadriga yetmoq”, “mehnat orqali yetishmoq”, “ko‘ngilni og‘ritmaslik”, “yaxshilik urug‘ini sochmoq” kabi iboralar orqali jamiyat hayotida qadrlangan me’yor va ideallar ifodalanadi. Bu jarayonda frazeologik birliklar nafaqat lingvistik hodisa, balki madaniyat va ma’naviyatning ifoda shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, frazeologik birliklarni qadriyat mazmuniy maydoni bilan bog‘lab tahlil qilish ularning til – madaniyat – jamiyat munosabatlari zanjiridagi o‘rni va vazifasini aniqroq ko‘rsatib beradi. Buni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin.

#### FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR



ifodasi

vaziyatda

tafakkurni

qo'llanishi

mustahkamlash.

Mazkur jadval orqali anglash mumkinki, "frazeologik birliklar ↔ qadriyatlar" o'rtasidagi bog'lanishni ko'rgazmali qilib chiqarsak bo'ladi.

**Muhokama va natija.** Til xalq madaniyatining, qadriyatlari va dunyoqarashining bevosita ifodasidir. Frazeologik birliklar xalq tafakkurining ko'zgusi bo'lib, unda milliy-madaniy qadriyatlarning turli qatlamlari mujassamdir. Bugungi kunda tilshunoslikda frazeologik birliklarning milliy-madaniy komponentini aniqlashning bir nechta yondashuvlari mavjud. Jumladan, lingvomadaniy, kognitiv, semantik-pragmatik va qiyosiy tipologik metodlar frazeologik birliklarning turli qirralarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Frazeologizmlar xalqning qadriyatlari bilan uzviy bog'langan.

Frazeologizmlarda ifodalangan qadriyatlarni quyidagicha guruhlariga ajratish mumkin:

1. Ma'naviy qadriyatlar: "Ko'ngli toza", "Ko'ngilni olmoq", "Ko'ngil sindirmaslik". "Ko'ngli toza bo'lmoq" – sof qalb, poklik qadriyatining ifodasi. Bu kabi iboralar xalq ma'naviy dunyosining qadriyat darajasida shakllanganini ko'rsatadi. "Ko'ngil olmoq" iborasi polisemantik bo'lib, kontekstda turli pragmatik ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, "Ota-onaning ko'nglini olmoq" iborasi ota-ona hurmati qadriyatining markaziy o'rinda turishini bildiradi. Bu qadriyat Sharq xalqlariga xos milliy o'ziga xoslikni ifodalaydi.

2. Axloqiy qadriyatlar: O'zbek xalqining *ezgulik, mehnatsevarlik* kabi qadriyatlari iboralarda o'z ifodasini topgan: "Oq yo'l tilamoq" – ezgulik qadriyatining timsoli; "Halol non topmoq" – mehnat va halollik qadriyatini ifodalaydi;

3. Ijtimoiy qadriyatlar: Frazeologik birliklardagi "qadriyat" mazmuniy maydoniga oid birliklar o'zbek xalqining mentaliteti va ijtimoiy qadriyatlariga tayanadi.

O'TILda "Bo'yoqchining nilimi" va "Bo'yoqchining xumi aynidi" iborasi keltirilgan. "Bo'yoqchining nilimi" iborasi qiyin ishni oson fahmlab, tez bitirib berishni talab qilgan kishiga "bu siz o'ylaganday oson ish emas", degan pragmatik ma'noda aytiladigan. **Bo'yoqchining xumi aynidi** iborasi el orasida tagi-tugi yo'q "mish-mish" tarqalganda aytiladigan ibora sifatida berilgan. O'zbek tilida mavjud bo'lgan iboralar xalqning hayotiy tajribasini, hikmatlarini va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradi. "Bo'yoqchining nilimi" iborasi, asosan, biror ishni oson deb hisoblagan shaxsga murojaat qilinib, ishning aslida murakkabligini va qiyinchiliklarini anglatish maqsadida ishlatiladi. Ushbu ibora, ishning yuzaki ko'rinishi bilan uning ichki murakkabligi o'rtasidagi tafovutni ta'kidlaydi.

Pragmatik jihatdan, bu ibora quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

1. Ogohlantirish ma'nosida: Oson ko'ringan ishga nisbatan kishilarning o'z fikrlarini o'zgartirishga undaydi, shunda u ishning murakkabligini tushunadi.

2. Ijtimoiy aloqalar ma'nosida: Bu ibora ijtimoiy muloqotda qiyin jarayon va unga jiddiy yondashish kerak ekanligi, chunki u ish jarayonidagi noaniqliklarni ochib beradi va muloqotni yaxshilaydi.

3. Tushunmovchiliklarni bartaraf etish ma'nosida: Odamlar o'rtasida kelishmovchiliklar yoki tushunmovchiliklar yuzaga kelganda, bu ibora orqali vaziyatni yengillashtirish, munosabatlarni yaxshilash mumkin.

“Bo‘yoqchining xumi aynidi” iborasi esa mish-mishlar tarqalganida yoki biror voqea haqida noaniq ma'lumotlar paydo bo'lganda ishlatiladi. Bu ibora, odatda, bunday mish-mishlarga ishonmaslik yoki ularning asossiz ekanligini bildirish uchun qo'llaniladi.

Ushbu iboraning pragmatik jihatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Yolg'on axborotni qoralash ma'nosida: Odamlar orasida tarqalgan mish-mishlarni tanqid qilish va ularni rad etish maqsadida ishlatiladi.

2. Ijtimoiy nazorat vazifasini bildiradi: Bu ibora jamiyatda noto'g'ri ma'lumotlar tarqalishiga qarshi kurashishda yordam beradi.

3. Muloqotda aniqlik: Noaniq yoki asossiz ma'lumotlarga qarshi chiqish orqali odamlar o'rtasidagi muloqotni yanada aniqroq va ishonchli qilishga xizmat qiladi.

“Bo‘yoqchining nilimi” va “Bo‘yoqchining xumi aynidi” iboralari o'zbek tilidagi boy qadriyatni aks ettiradi. Ular pragmatik jihatdan turli maqsadlar uchun ishlatiladi va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu iboralar orqali odamlar o'z fikrlarini ifodalash, ogohlantirish va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklar nafaqat tilning leksik tuzilmasini, balki uning pragmatik jihatlarini ham shakllantiradi. Misol uchun, birgina “o'zini tutmoq” iborasi turli kontekstlarda turli pragmatik ma'nolarni anglatishi mumkin:

1. Rasmiy muhitdagi harakatni bildiradi.
2. Norasmiy suhbatda hissiyotlarni nazorat qilishni bildiradi.
3. Betob bo'lganidagi holatni bildiradi.
4. Chaqaloqning harakatini bildiradi.
5. Endi yo'lga qo'yilgan ish, faoliyatni bildiradi.
6. Tez jahli chiqadigan odam ma'nosini bildiradi.
7. Ba'mani harakatni bildiradi.
8. Bosiqlik harakatini bildiradi.
9. Kiborga xos harakatni bildiradi.
10. Gavdasini ko'tarish harakatini bildiradi.
11. Haddini anglashni bildiradi.

**Xulosa.** Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, frazeologik birliklarning pragmatik potensialini tadqiq qilish zamonaviy tilshunoslikda dolzarb masala hisoblanadi. Foydalanuvchi omili, kontekst va muloqot maqsadlari frazeologik birliklarning samarali ishlatilishini belgilaydi. Bu masalani chuqurroq o'rganish orqali tilshunoslar muloqot jarayonida frazeologik birliklarning ahamiyatini yanada yaxshiroq tushunishlari mumkin.

Zamonaviy nazariy-metodologik vositalarni qo'llash orqali, biz frazeologik birliklarning til va jamiyat o'rtasidagi aloqani mustahkamlashdagi o'rnini yanada chuqurroq anglab yetishimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Виноградов В.В. Основные типы лексических значений слова // Вопр. яз-я. –1953. - № 5. -С. 21.
2. Е. А. Молодых. Коммуникативно-прагматическая роль фразеологизмов при трансляции языковой картины мира в. Скотта. <http://www.vestnik.vsu.ru/pdf/lingvo/2010/02/2010-02-39.pdf>
3. Sh.Rahmatullayev. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. "O'qituvchi" nashriyoti, 1978. – 407 b
4. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. 6 jildli. II jild. –B.500

